

MAMLAKATIMIZDA YANGI UYG‘ONISH DAVRI-UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Mamanazarov Solijon Sherzodbek o‘g‘li

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti Milliy g‘oya,
ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi

E-mail: Solijonmamanazarov01@gmail.com

Ilmiy rahbar: Jumaniyozov Xushnud Safoyevich

Nizomiy nomidagi TDPU “Ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”
kafedrasini mudiri, siyosiy fanlar nomzodi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada yurtimizda yangi uyg‘onish davri- uchinchi renessans poydevorini yaratish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so‘z yuritiladi. Hukumatimiz, xususan davlatimiz rahbari tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar haqida atroflicha to‘xtalib o‘tiladi.

**“Bugungi kunda ko‘p millatli xalqimiz- Vatanimiz taraqqiyoti uchun, -
O‘zbekistonning yangi Uyg‘onish davrini yaratish yo‘lida belini mahkam
bog‘lab, fidokorona mehnat qilmoqda. Bu yo‘lda ulkan orzu-umidlar,
katta rejalar bilan safimizga qo‘shilayotgan
yoshlarimiz — asosiy tayanchimiz va suyanchimizdir.”
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev**

Tarixdan barchamizga ma’lumki doimiy ravishda dunyo g‘oyalar jangi ostida boshqarib kelingan. Shu o‘rinda tabiiyki savol tug‘iladi “G‘oya o‘zi nima?”. G‘oya inson tafakkurining mahsuli bo‘lib, jamiyatni aniq maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir. G‘oya atamasiga barcha davrlarda o‘z davrining yetuk olimlari, faylasuflari tomonidan eng to‘g‘ri, bir-birini to‘ldiruvchi ta’riflar berilgan. Bugungi kundagi dunyo manzarasi ham insonlarning g‘oyalar ta’siri ostida yashashga, biror maqsadga erishish uchun ana shu maqsadning g‘oyalari bilan harakatlanishga majbur etmoqda. Ma’naviyatchilarda bir jumla bor “g‘oyaviy bo‘shliq”. Har bir insonning ongida ma’naviy bo‘shliq mavjud va mana shu ma’naviy bo‘shliq insonning umri davomida to‘ldirilib, inson shaxsining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar ertangi kun egalari yoshlar bugun kitob o‘qimasa, bilim egallamasa ulardagi aynan mana shu bo‘shliq begona, yot va buzg‘unchi g‘oyalar bilan to‘ladi. Davlatimiz rahbari tomonidan aytilgan va bugungi kunda iste’molda faollashgan “uchinchi renessans”

g'oyasini ilmi, ma'rifatli, mard va oliyjanob xalqimiz bilan, shijoatli va vatanparvar yoshlarimiz bilan bunyod etishimiz mumkin. Bugun biz yoshlar ko'proq o'z ustimizda ishlasak, ilmi, ma'rifatli bo'lmasak ertangi porloq kelajakni, kelajagi buyuk davlatni barpo etib bo'lmaydi. Prezidentimiz tomonidan ta'kidlanganidek, uchinchi renessansni yaratish uchun kuchimiz, ham qurbimiz ham yetadi. Avvalo, ushbu renessansni yaratuvchi yangi Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino, Ulug'bek va Navoiylarni tarbiyalovchi muhit va sharoitni yaratib berishimiz zarur degan edi. Yurtimizda avval ro'y bergan ikkita renessansni vujudga kelishida ham o'sha davr ma'naviy muhitiga bog'liqlik mavjud deb qaraladi.

Renessans o'zi nima? Renessans fransuzcha so'z bo'lib, qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq degan ma'nolarni anglatadi. Madaniyat, ilm-fan, san'at, ta'lim-tarbiya, umuman jamiyat hayotida uzoq muddatli bir xillikdan keyin qayta rivojlanish, ijtimoiy ong va qadriyatlarni yangilanishida, yanada taraqqiy etishida namoyon bo'ladi.

Birinchi renessans Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda ro'y berdi. Ushbu renessans davrida davlat boshqaruv siyosati, yer-suv va soliqlar siyosati keskin o'zgarishlar va islohotlar domida qoldi. Ushbu islohotlar, rivojlanishlar insonlar turli fan sohalariga qiziqish uyg'otmoqda. Jumladan, matematika, astronomiya, tibbiyot, fiqh(huquq), kimyo, geodeziya va dunyo tuzilishi haqidagi ilmlarga qiziqishi ortdi. Bu davrda yashab ijod qilgan buyuk marifatparvarlar Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mahmud Qo'shg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud az-Zamaxshariy va boshqalar, buyuk muhaddislar imom al-Buxoriy, imom Termiziylar va ularning shogirdlari o'z yo'nalishlari bo'yicha ilm-fan olamida katta portlash sodir etgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ikkinchi renessans ham ayni bizning mintaqamizda ro'y berdi. Ushbu renessansning poydevori bevosita Amir Temur nomi bilan bog'liq. Tarixchi olimlarimiz tomonidan ushbu renessansning asoschisi va homiysi sifatida buyuk davlat arbobi, sohibqiron Amir Temur siymosi ko'rsatiladi. Ikkinchi renessans davri, o'z navbatida, "Islom madaniyatining oltin asri" deya nomlangan. Bu davrda Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi, Lutfiy, Sakkokiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Sharafiddin Ali, Xondamir va boshqa shoirlar, olim-u fuzalolari bu yurtning nomini dunyoga tanitdi. Ikkinchi renessans butun dunyoga "Bayt ul-hikma", "Xorazm ma'mun akademiyasi" kabi mashhur ilm dargohlarini qoldirdi.

E'tiborli jihati shundaki har ikki renessans davrida davlat rahbarlari, ilm-fan ahli, birinchi navbatda, yoshlar tarbiyasi, ma'naviyati, iymon-e'tiqodi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratishgan. Barcha allomalarni asarlariga, ilmiy merosiga nazar tashlasak ta'lim bilan tarbiyani uyg'un olib borish kerakli haqida ma'lumotlarni

uchratishimiz mumkin. Buyuk mutafakkir ibn Sinoning asarlariga nazar tashlasak ham bolaning tili ravon chiqib, badan bo'g'inlari qotsa bolaga ilm va odob o'rgatish kerak deb takidlagan.

XIX asrning 2-yarmida yurtimizning ilmi-ma'rifatli shaxslari, ya'ni jadidlar qatag'onga uchradi. Ayni o'sha vaqtdan boshlab yurtimizda ilm-fan turg'unlik davriga kirdi. Ikkita renessansni beshigi bo'lgan Markaziy Osiyo ilm-fanda dunyodan ortda qoldi, g'arb davlatlari esa aksincha rivojlanish, fan-texnika taraqqiyoti davriga kirdi. Ammo, mustaqillikka erishganimizdan so'ng, qatag'on qilingan jadid ma'rifatparvar, ziyolilarimzi nomi oqlana boshlandi. Ya'ni, "milliy tiklanish" deya nom olgan yangi davr boshlandi. Bugungi kunga kelib esa "milliy tiklanishdan- milliy yuksalishga tomon" shiori ostida mamlakatimizda fan-texnika taraqqiyoti jadallashmoqda. Nega ikkita renessansni vujudga keltirgan shu vatan, shu xalq uchinchi renessansni yarata olmaydi?

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev hozirgi islohotlarning barchasi uchinchi renessansga qadam qo'yish uchun deb, buni quyidagicha ta'rifladi: "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish-uchinchi renessans daavriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston- kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas".

Agar uchinchi renessans uchun barchamiz hoh yosh bo'lsin, hoh nuroniy bir yoqadan bosh chiqarib, bir oliy maqsad sari intilmas ekanmiz bir yoki ikki kishi bilan renessansni amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun barchamiz harakat qilishimiz darkor. Ilm-ma'rifatli jamiyatgina bu maqsadni amalga oshira oladi deb o'ylayman. Buning uchun pedagoglar, ota-onalar va har bir fuqaro buni anglagan holda ertangi kun egalari bo'lmish yoshlarni ilm-ma'rifatli, yuksak intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashi darkor. To'g'ri bir, ikki, besh yoki o'n yilda buni amalga oshira olamiz deb ayta olmaymiz. Ammo, bugungi qilinayotgan ishlar, islohotlar, albatta, ertaga o'z mevasini beradi deb aytisam mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan barcha taklifalarida, islohotlarida, eng avvalo, inson manfaatlari, uning erki, sha'ni, obro'si, qadr-qimmati yotibdi desak xato bo'lmaydi. Bir misol tariqasida shuni aytishimiz mumkinki, bosh qomusimizning 52-moddasida o'qituvchilar huquqlarini himoya qilinishini ko'rsatish ham bu bir insonparvarlik desak bo'ladi. Bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti davrida jahon axborot tizimi, ya'ni "internet" barchani o'z domiga tortib, yoshlarni kitobdan uzoqlashishi kuzatilayabdi deb barcha joylarda ta'kidlanayabdi. To'g'ri yoshlarni kitobdan uzoqlashtirayabdi, ammo, bugun jadallik bilan rivojlanayotgan shiddatli zamoni ortga qaytarib, yoki undan chetga chiqib bo'lmaydi. Bizga faqatgina to'g'ri yo'naltiruvchi kuch yetishmayabdi holos.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar o‘rtasida kitoblikni keng targ‘ib qilish, kitobxonlik muhitini yaratish maqsadida tashkil etilgan “Yosh kitobxon” ko‘rik-tanlovi ham respublikamizdagi barcha yoshlarni o‘z atrofida birlashtira oldi. Bosh sovrin prezident sovg‘asi spark avtomobili ham yoshlarni ma‘lum darajada o‘ziga jalb eta olayabdi. Kitob o‘qigan insonga sovg‘aning ahamiyati yo‘q, kitob orqali olgan bilimni esa hech kim tortib ololmaydi. Yoshlarni ta‘lim olishi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida imtiyozli ta‘lim kreditlari ajratilmoqda. Qizlar uchun foizsiz ta‘lim kreditlari, magirtratura bosqichida esa bepul grand asosida o‘qish yo‘lga qo‘yildi.

Yoshlarni texnika-tabiiy fanlarga yanda kengroq jalb etish uchun Prezident ixtisoslashgan ta‘lim muassasalari tashkil etildi. Har bir viloyatlarda tashkil etilgan yoshlar texnoparklari ham yoshlarni texnika fanlari, robotatexnika bilan ko‘proq shug‘ullanishiga imkoniyat yaratib bermoqda. Chet tillarini o‘qitishga ham ko‘proq etibor qaratilmoqda. Chet tili sertifikatiga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilarga qo‘shimcha ustamalar berilishi ham, ularni yanada o‘z ustida ishlashga, chet tilida yozilgan o‘z sohasiga oid adabiyotlarni o‘qib o‘rganishga zamin yaratmoqda. Yoshlarni bugungi kundagi zamonaviy kasblarga o‘rgatish uchun IT parklari tashkil etilib, u yerlarda respublika bo‘ylab minglab yoshlarimiz zamonaviy kasblarga oid bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirmoqda. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarga yoshlarimiz borib kompyuter texnologiyalari, tibbiyot, arxitektura, grafik dizayner va boshqa sohaslar bo‘yicha bilim olishmoqda. Yoshlarni yanada ilg‘or, rivojlangan davlatlarga o‘qishlarga yuborib, malakali kadr qilib mamlakatimizga rivojiga o‘z hissasini qo‘shishi uchun “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan ham ko‘plab yoshlarimizning xorijda o‘qish xarajatlari qoplab berilmoqda. Respublikamizda ta‘lim sifatini oshirish maqsadida rivojlangan davlatlarning o‘qitish tizimlari, ta‘lim texnologiyalari o‘rganilib tatbiq etilmoqda. Raqobat muhitini shakllantirish maqsadida xususiy nodavlat ta‘lim muassasalarini tashkil etish qo‘llab quvvatlanmoqda. Raqobat muhitida ta‘lim sifati oshib, yetuk malakali mutaxassislar tayyorlanadi. Tibbiyot sohasida ham rivojlangan davlatlarning ilg‘or ta‘lim muassasalari, shifoxonalari bilan keng hamkorlik qilinmoqda. Xorijda faoliyat olib borayotgan shifokorlarimiz, ilm-fan fidoiylari, tadbirkorlarimizni mamlakatimizga qaytib, ilg‘or texnologiyalarni olib kirgan holda mamlakat rivoji, aholi salomatligiga o‘z hissalarini qo‘shishi uchun ularga qo‘shincha imtiyozlar, subsidiyalar ajratilmoqda. Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaratish, faol tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish, aholini ish bilan ta‘minlash maqsadida ishlab chiqarishga, tadbirkorlikka ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. O‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘ymoqchi, biznes rejasi mavjud yangi tadbirkorlarga davlat tomonidan davlat hisobida bo‘sh turgan bino-inshootlari no‘l xarid qiymatida tadbirkorlarga bo‘lib berildi. Fermerlarga o‘z klaster tizimini

yaratish uchun imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratilmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini qo‘llab quvvatlash maqsadida tadbirkorlik bilan shug‘allanishi, o‘zini-o‘zi ish bilan ta‘minlashi uchun davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, tikuv mashinalari, stanoglar, chorva va parranda hayvonlari tarqatib kelinmoqda.

Mamlakatimizni yanada rivojlanitish, qulay ishbilamonlik muhitini yaratish, aholini ish bilan ta‘minlash, zamonaviy tejamkor texnologiyalarni mamlakatimizga olib kirish uchun xorijiy tadbirkorlarga, investorlarga ham qo‘shimcha imtiyozlar yaratib berilmoqda. Ularga mamlakatimizdagi mavjud ichki tizimni, resurslarni, ular uchun qulay muhitni tanishtirish uchun o‘tkazilgan birinchi va ikkinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Ushbu forumlarni natijasi sifatida birgina misol Xitoy, Koreya va Turkiya kompaniyalari tomonidan respublikamizda 4 ta quyosh elektrstantsiyalarini barpo etish bo‘yicha imzolangan yirik qiymatli loyihalarni keltirishimiz mumkin. Ushbu loyihalar asosida ham aholimiz ish bilan ta‘minlanadi, ham arzon va atrof-muhitga zarar yetmaydigan holda aholi arzon elektr toki bilan ta‘minlanadi. O‘zavtosanoat va Xitoy avtosanoat korxonalari hamkorligida tashkil etilayotgan yangi avtokorxonalar ham aholini ish bilan ta‘minlaydi, aholiga sifatli va arzon avtomobillar taqdim etadi.

Uchinchi renessansni bunyod etish uchun kuchimiz ham, qudratimiz yetarli. Buning uchun biz barchamiz bugungi siyosatni to‘g‘ri anglagan holda yurtimiz rivojlanishi, vatanimiz taraqqiyoti, ertangi porloq va istiqbolli kelajak uchun bor kuch-g‘ayratimizni safarbar etishimiz zarur. Ko‘proq o‘qishimiz, ko‘proq izlanishimiz, o‘zimizni raqobat muhitida boshqalardan orqada qolmasligimiz uchun erta-yu kech harakat qilib, allohdan so‘rasak, albatta, ushbu oliy maqsadni amalga oshiramiz. Biz dunyoga birinchi va ikkinchi renessansni bergan xalqlarning avlodimiz. Ajdodlarimiz o‘z davrlarida ikkita renessans, ikkita uyg‘onish yarata olgan ekan, biz ham albatta uchinchi renessansni yarata olamiz deb baralla aytishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Birinchi renessans allomalari: o‘quv qo‘llanma. Xolmuradov R. va boshqalar. Toshkent- Yangi asr avlodi, 2023-yil
2. “Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda” O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri bilan suhbat.
3. Akmal Saidov. “Yangi O‘zbekiston va Uchinchi renessans: ma‘no-mohiyati, zaruriyati va mushtarakligi”. O‘zA, 2021-yil
4. B. Zaripov. “Uchinchi Renessans poydevori”. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2-iyul 2021-yil

- 5.Xorazm ma'mun akademiyasining rasmiy veb-sayti- mamun.uz
- 6.O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi- Lex.uz
- 7.Kun.uz elektron ommaviy axborot vositasi rasmiy veb-sayti- kun.uz
- 8.Yangi O'zbekiston gazetasi rasmiy veb-sayti- yuz.uz
- 9.cyberleninka.ru elektron sayti